

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Huquqshunoslik fakulteti

«Fuqarolik huquqi» kafedrası

QURBONOV FARRUX AZAMATOVICH

**OLIIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI
DEPUTATINING MAQOMI**

«5380100-Yurisprudensiya» ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi»
Kafedra mudiri:
dos. J.Ibodullayev
«____» _____ 2011 y

Ilmiy rahbar _____J.Ibodullayev
«__» _____ 2011 y.
Taqrizchi _____

«____» _____ 2010 y

SAMARQAND – 2011

OLIIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI DEPUTATINING MAQOMI

KIRISH

ASOSIY QISM

I – BOB. Qonunchilik palatasining shakllantirishi va tuzilishi.

- 1.1. Qonunchilik palatasining mohiyati
- 1.2. Deputatlar saylovi va palata deputati
- 1.3. Palataning tuzilishi va faoliyat tartibi

II– BOB. Qonunchilik palatasi deputatlarining Konstitusion-huquqiy maqomi.

- 2.1. Deputatlarning Konstitusiyaviy maqomi
- 2.2. Deputatlar statusi to'g'risidagi qonunchilik
- 2.3. Deputatlar fraksiyasi va guruhлари

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

K I R I S h

Tadqiqot ishining yangiligi. Huquqiy davlatchilik va fuqarolik jamiyati gullab – yashashi uchun ilk zamin – bu parlamentarizmdan boshlanmog'i shart. Zero, parlamentning qanday bo'lishi, davlat hokimiyati organlari tizimida uning qanday o'rin egallashi, qanday qonunlar qabul qilinishi, bu qonunlar inson huquqlari va erkinliklarini qay darajada ta'minlay olishi – davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarining xarakterigagina emas, balki bundan keyin davom etadigan davlat va jamiyat qurilishining barcha jihatlariga ta'sir qilishi shubhasiz edi.

Agar fuqarolik jamiyati va parlamentarizm institutlarining kelib chiqish, barpo bo'lish shart-sharoitlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bunda har ikkala tizimining ham tashkil topish va rivojlanish jarayonlariga bir xilda xos bo'lgan o'xshash vazifalar borligini ko'ramiz. Masalan, fuqarolik jamiyati institutlari ham, parlamentarizm ham fuqarolarning siyosiy manfaatlari va talab – ehtiyojlarini ko'zlagan holda turli miqyoslarda xizmat qilishlari kerak.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Nodavlat tashkilotlarining ijtimoiy tashabbuslari, qoidaga ko'ra, vakillik va qonunchilik hokimiyatlarida hamma vaqt shikoyat – ariza tarzida ko'rib chiqiladi. Buning sababi shundaki, parlament o'zining shakllanishi, vujudga kelishi usullariga ko'ra ham jamiyatga eng yaqin turadigan davlat organidir, qolaversa, u o'zining tashkiliy imkoniyatlariga ko'ra ham fuqarolik jamiyatlari institutlari bilan o'zaro samarali aloqalarga kirisha oladi. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati ham, davlat ham muntazzam ravishda birbirlariga qarab intiladigan tashkilotlardir (buning uchun albatta zaruriy shart-sharoitlar, jamiyatda yetakchilik qiladigan liberal tamoyillar, demokratik qadriyatlar amalda bo'lmog'i, davlatning o'zi huquqiy asoslarga ega bo'lmog'i, davlatning o'zi esa huquqiy asoslarga ega bo'lmog'i taqozo) etiladi.

Tadqiqotning metodologik va ilmiy – nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda fuqarolik jamiyatining o'zi ham maqsad manfaatlari davlat qarorlari darajasiga ko'tarilishida parlamentarizmning qo'llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezilganligini ko'rsatib berilgan. Jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyatining gullab yashnagan darajasiga erishsa, fuqarolik tashabbuslari, siyosiy jarayonlarning ajralmas bir belgisiga aylansa, bunday sharoitda fuqarolik jamiyati institutlari davlat bilan bo'layotgan o'zaro munosabatlardagi hamkorlik ijobiy natijalar berishi uchun yangi-yangi imkoniyatlarni izlab topa boshlaydi.

Parlament xalq irodasini ifodalovchi qonunlar qabul qilish vositasida muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, shuningdek, ijro hokimiyati organlarining, oliy lavozimdagi shaxslarning faoliyati va hokazo ishlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi sobiq «sovetlar» va «syezdlar» tizimidan tadrijiy (evolyusion) yo'l bilan uzoqlashib, bugungi darajasiga erishguncha oraliqdagi yo'lni bosib o'tishi kerak bo'ladi. Binobarin, parlamentarizmning ijtimoiy munosabatlarning, avval tajribada ko'rilmagan tizimdagi, jamiyat qurilishidagi, odamlar ongidagi tushunchalar asosida, umumiy e'tirof etilgan demokratik tamoyil – hokimiyatning uch sohaga – qonunchilik, ijro va sud hokimiyatiga bo'linishi asosiga qurish boshlandi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi bu bo'linishning asosiy tamoyiliga aylandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Parlamentarizm rivojlanishi ham bosqichma-bosqichlik tamoyili asosida quriladi. Aks holda nobarqarorlik va hokimiyatlar muvozanati bir paytda atak-chechak qilayotgan yosh parlament demokratik institut doirasidan chiqib ketib, siyosiy krizislarni keltirib chiqaruvchi dastgohga aylanishi mumkin. Milliy manfaatlar populistik maqsadlarga aylantirilib qo'yilsa, mana shuning o'zi davlat mexanizmining ishdan chiqishiga olib kelishi hech gap emas. Qonunchilik ikkinchi darajali vazifaga aylanishi u faqat siyosiy kurashni davom ettirish uchungina yoki bu xildagi lobbilar faoliyati uchungina ishlatiladigan qo'g'irchoqqa aylanib qoladi. Eng muhimi mamlakatga ishchan, qobilyatli shaxslardan tashkil topgan, qonunchilik va vakillik

vazifalarini to'lig'i bilan ado etib chiqa oladigan parlament kerak bo'ladi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov bu haqda dasturiy ma'ruzalar qilib, unda jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilashning aniq va teran asoslantirilgan konsepsiyasini, shuningdek, mamlakatimizni 2010 yilda va uzoq muddatli istiqbolda isloh etish hamda modernizasiya qilishning asosiy vazifalarini ilgari surdi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mamlakatni isloh etish va modernizasiya qilishning davlatimiz boshlig'i tomonidan olg'a surilgan ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan 2005-2012 yillarga mo'ljallangan qonunchilik faoliyati dasturini qabul qilgan.

Ikki palatali parlament tashkil etilgach, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo'lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshgan. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraksiyalarida oldindan ko'rib chiqish, Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini albatta eshitish amaliyoti shakllangan.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi. Kirish, ikki bob,olti bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I – BOB. Qonunchilik palatasining shakllantirishi va tuzilishi.

1.1. Qonunchilik palatasining mohiyati.

Mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki paytlardanoq O'zbekistonda demokratiyani taraqqiy toptirish uchun hozirgi zamon jahon standartlariga javob bera oladigan samarali va ishchan parlamentni shakllantirish zarur degan fikrda yakdil edi. Ammo bir ijtimoiy tizimdan ikkinchisiga o'tish sharoitida bu vazifa – murakkabgina bo'lib qolmay, balki hayot – mamotni hal qiladigan darajada qiyin masala ham edi.

«Bosqichma-bosqichlilik» tamoyiliga amal qilgan islohotchi – davlat ushbu jarayonni quyidagi bosqichlarda o'tkazdi: O'zSSR Oliy Sovetidan – mustaqil O'zbekiston Oliy Sovetiga, undan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va yarimprofessional bir palatali parlamentdan – ikki palatali professional parlamentga. Birinchi bosqichda suverenitet asoslarini o'rnatish, davlat va jamiyat qurilishi, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va ijtimoiy sohalarida muhim qonunlar qabul qilish kerak edi. Parlamentarizm saboqlarini o'zlashtirmog'i kerak edi. Gap shundaki, parlament degan so'zning o'zi mustaqillik qo'lga kiritilgunicha O'zbekistonda ishlatilmas edi.

Parlamentarizmning sovet davri tarixida parlamentga taqlidan organlar tashkil qilib, ularning faoliyatida sovet-kommunistik davlatchiligining barcha ikir-chikirlari aks etardi. Totalitarizm sharoitida parlament qanday ishlaganligi haqida shu kungacha jild-jild ilmiy va publisistik asarlar yozilgan. Sovet parlamentarizmi faoliyatida ajralib turgan jihat shundan iborat ediki, unda eng asosiy narsa – parlament mohiyatiga mos keladigan faoliyat, ya'ni demokratizm, mustaqillik, qonunchilik va vakolatli hokimiyatlarning real belgilari va hokazolardan asar ham yo'q edi.

Binobarin parlamentarizmni ijtimoiy munosabatlarning, avval tajribada ko'rilmagan tizimdagi, jamiyat qurilishidagi, odamlar ongidagi tushunchalar

asosida, umumiy e'tirof etilgan demokratik tamoyil – hokimiyatning uch sohaga – qonunchilik, ijro va sud hokimiyatlariga bo'linishi asosiga qurish boshlandi.¹

1990 yil 20 iyunda o'tgan o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Sovetning ikkinchi sessiyasida suverenitet haqida Deklarasiya qabul qilindi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalq – davlat hokimiyatining yagona manbai, bu hokimiyat xalq manfaatlarini ko'zlab faqat va faqat konstitutsiya vakolatlagan organlar tomonidan amalga oshiriladi, deb e'lon qilindi.

Shuningdek, Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilganki, O'zbekiston xalqi tomonidan faqat shu xalq saylagan Oliy Majlis (parlament) va respublikaning Prezidenti gapirishi mumkin. Jamiyatning boshqa Biron- bir qismi, siyosiy partiya, ijtimoiy birlashma yoki alohida bir shaxs O'zbekiston xalqi nomidan gapirishga haqqi yo'q.

1995 yil o'tkazilgan Prezidentlikka va parlamentga saylovlar Yangi milliy demokratik qonunchilik asosida o'tkazilib, parlamentarizm va saylov tizimdagi yangi bir tajribaga zamin yaratdi. O'n ikkinchi chaqiriq Respublika Oliy Sovetining XIV sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Oliy Majlisga birinchi saylovlar 1994 yil 25 dekabrda ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida o'tdi. 250 ta deputatlik mandati uchun 634 nafar nomzod kurash boshladi, shundan 139 saylov okrugida uchtadan nomzod, 106 okrugda- 2 tadan nomzod kurash olib borgan bo'lsa, faqat 5 ta okrugdangina 1 tadan nomzod ko'rsatilgan edi. Saylovchilar o'zlarining eng yaxshi vakillarini saylashlari uchun barcha saylov huquqlari muhayyo qilingan edi. Saylovlarda 10 million 526 ming 654 nafar saylovchi, ya'ni umumiy saylov huquqiga ega bo'lgan fuqarolarning 93,9 % (foizi) ishtirok qildi.

¹ Хусанов О.Т.: Ўзбекистон Республикасининг маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисидаги қонунга шарҳлар.Т.: Адолат, 1995

Saylangan deputatlar 15 millatga mansub bo'lib, shulardan 208 nafari yoki 83,2 foizi oliy davlat vakillik organlariga birinchi bor saylanishi edi. Oliy majlisga ayol – qizlardan 15 nafari saylangan, har yettinchi deputat ilmiy daraja va unvonga ega edi.

Parlamentarizmning keyingi rivojlanishi ham bosqichma-bosqichlik tamoyili asosida kechdi. Aks holda nobarqarorlik va hokimiyatlar muvozanati bir paytda atak-chechak qilayotgan yosh parlament demokratik institut doirasidan chiqib ketib, siyosiy krizislarni keltirib chiqaruvchi dastgohga aylanishi mumkin edi. Bunday sharoitlarda qonunchilik – ikkinchi darajali vazifaga aylandi, u faqat siyosiy kurashni davom ettirish uchungina yoki u yoki bu xildagi lobillar faoliyati uchungina ishlatiladigan qo'g'irchoqqa o'xshab qoladi. Endi bunday parlamentdan elning – xalqning kor-holiga yaraydigan, milliy manfaatlariga javob beradigan, yetti o'lchab bir kesilgan, chuqur o'ylangan qonun va qarorlar kutish qiyin bo'lib qoladi. Shunga ko'ra, parlament hokimiyatlarni taqsimlash tizimida to'laqonli ish yuritish uchun uni shunday sharoitlar bilan ta'minlash kerak ediki, bir tomondan hokimiyatning barcha tamoqlariga ma'lum darajada ta'sir o'tkazsin, ikkinchi tomondan, davlat tizimi ichida ham, davlat bilan fuqarolik jamiyati o'rtasida ham, ochiq va har qanday qarama – qarshilikni yengib o'ta oladigan mahkamaga aylansin.

Eng muhimi – mamlakatga ishchan, qobiliyatli, qonunchilik va vakillik vazifalarini to'lig'i bilan ado etib chiqa oladigan parlament kerak edi, jamiyatni ajratib tashlaydigan emas, balki bunyodkorlik yo'lida odamlarni, fuqarolarni jipslashtira oladigan parlament kerak edi. Axir mamlakat oldida ulkan bir vazifa – yangi demokratik davlatchilikni yaratish vazifasi bo'y tiklab turardi.

Oliy Sovet faoliyat ko'rsatgan bosqichda mazkur vazifalar asosan ado etib bo'lindi.

Ikkinchi bosqich – Oliy Majlis deb atalgan yangi, bir palatali parlamentni shakllantirishdan boshlandi. Bir mandatli hududiy saylov okruglaridan saylangan 250 nafar deputatdan iborat yangi parlament birinchi bor ko'ppartiyaviylik asosida

1995 yilning boshida saylandi. Uning tarkibida Xalq – demokratik partiyasidan – 69 deputat, Adolat sosial – demokratik partiyasidan – 47 deputat, Vatan taraqqiyoti partiyasidan – 14 deputat, Milliy tiklanish partiyasidan – 7 deputat bor edi. Parlament fraksiyalari ilk bor tashkil etildi. Bundan tashqari deputatlarning ma'lum bir qismi Qoraqalpog'iston parlamenti, viloyatlar hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi tomonidan saylandi. Shunga ko'ra, fraksiyalar bilan bir qatorda parlament faoliyatida hokimiyatlarning vakillik organlaridan kelgan 120 deputatlik bloki ham bor edi.

Deputatlarning yarmidan ko'pi yilda 4 marotaba bo'ladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyalari vaqtida qonunchilik vazifalarini amalga oshirib, avvalgi ish o'rinlarida ishlab turgan o'z majburiyatlarini ado qilishda davom etadilar.

Oliy Majlisning muntazzam va samarali ish faoliyatini uning Kengashi (prezidumi) qo'mitalari, Oliy Majlis komissiyalari, shuningdek, doimiy asosda ishlaydigan deputatlari ta'minlab turdilar.

Bu o'zbek parlamentarizmi tarixidagi eng muhim bir davr edi, zero aynan mana shu davrda bir qator muayyan ehtiyojlar, shuningdek, qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy davlat vakillik organining ishida bir muncha yuksak professional darajani ta'minlashga doir imkoniyatlar ham aniqlab olindi. Bundan tashqari, bu davr murakkab tuzilmali parlamentga, hokimiyatning barcha shaxobchalarida barqarorlik va ish me'yorlarini saqlagan holda qonunchilik, davlat boshqaruvi va tashqi siyosat sohasida kuchli konstitusiyaviy hokimiyatning parlamenti darajasiga bosqichma-bosqich o'tish eng to'g'ri yo'l ekanligini ham tasdiqladi.

Bu davr mobaynida demokratik parlamentarizm madaniyatini bundan buyon ham rivojlantirish uchun sharoitlar yaratildi, professional deputatlar, parlamentda xizmat qiluvchi yuksak malakali xodimlar pleyadasi yetishib chiqdi, parlamentning obro'-e'tibori oshdi, shularga muvofiq ravishda ilmiy baza ham rivojlana boshladi. Parlament mexanizmining shundan keyingi ravnaqi, bir qator parlamentlik

vazifalarining kuchaytirilishi, parlamentga qo'shimcha vakolatlarning berilishi endilikda nazariyalardan kelib chiqilgan holda emas, balki to'plangan tajribalar asosida bo'lib o'tdi.

Parlament faoliyatini kuchaytirishga, shu jumladan, qonunchilik jarayonini to'la professionallashtirishga, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning sifatini oshirishga bo'lgan ehtiyoj – ikki palatali parlament tizimiga o'tishning asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Bundan tashqari, taqsimlangan vakillarga ham ehtiyoj tug'ildi, ya'ni quyi palatani partiyalar va fuqarolar tashabbuskor guruhlaridan saylangan deputatlar bilan shakllantirish (jami 120 nafar), yuqori palatni joylardagi hokimiyat organlari vakillari (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardagi deputatlarning mahalliy kengashlaridan 6 kishidan) va mamlakat Prezidenti tayinlaydigan 16 nafar deputat bilan to'ldiriladigan bo'ldi (jami 100 nafar senator).

Bu g'oya ilk bor 2000 yilning 25 may sanasida bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi yig'ilishda e'lon qilindi. Bu yerda shuni ham qayd etib o'tish o'rinliki, parlament islohotlari o'tkazilishidan oldin siyosiy tizim rivojlanishiga doir muammolar chuqur va har tomonlama tahlil qilib chiqilgan edi. Ommaviy axborot vositalarida, tahliliy va ilmiy doiralarda ijtimoiy institutlarning taraqqiy qilishida uchrayotgan qiyinchiliklarning sabablari, davlat boshqaruvining samaradorliklari, qonunchilik hujjatlarini yaratish va ularni ijro qilish jarayonlari keng tahlil qilingan, fikrlar bildirilgan edi.

Parlament islohotlarining umumiy maqsadlari quyidagilarni qamrab oldi:

1) hokimyatda oliy davlat qonunchilik va vakillik organining yanada demokratik va samarali tizimni yaratish vositasida ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalarida erkinlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

2) parlament faoliyati vositasida davlat boshqaruvida siyosiy partiyalar va boshqa ijtimoiy institutlar rolini oshirish bilan fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish;

3) hokimiyat taqsimlanishi tamoyilini qa'tiy amalga oshirish, shuningdek, parlamentning qonunchilik va nazorat vazifalarini kuchaytirish vositasida huquqiy davlatni rivojlantirish;

4) mamlakatning siyosiy-huquqiy hayotida fuqarolarning demokratik ishtirokini faollashtirish;

5) hokimiyat shaxobchalari orasida o'zaro nazoratning muvozanatlashgan tizimini yaratish.

Parlament islohotlarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirish va faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ham muayyan maqsadlar ko'zlangan bo'lib, ular quyidagi vazifalardan iborat edi:

- 1) qonunchilik faoliyati samaradorligini oshirish;
- 2) parlamentning nazorat vazifasini kengaytirish va kuchaytirish;
- 3) parlament jarayonlarida hududlar rolini oshirish;
- 4) parlamentning beqaror faoliyat ko'rsatishi uchun kafolatlar mexanizmini yaratish;
- 5) parlamentda xizmat qiluvchilarning professionallik darajasini oshirish va umuman parlamentarizm madaniyatini rivojlantirish.

Ikki palatali parlamentni shakllantirishning maqsadga muvofiqligi haqidagi savol 2002 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan referendumda berilgan edi. Referendumda ovoz berish uchun tuzilgan ruyxatdagi fuqarolarning 91,58 foizi ishtirok qildi. Ovoz berganlarning 6,35 foizi «qarshi» edi. Referendum yakuniga ko'ra vash u asosda qabul qilingan konstitusiyaviy qonunlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga taalluqli o'zgartishlar kiritildi.

O'zbekiston 1991 yil 1 sentyabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan bir sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatdan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga

bo'linadi. Birinchi davr: 1991-1994 yillar, ikkinchisi: 1995-2004 yillar va uchinchi davr: 2005 yildan hozirgi paytgacha bo'lgan davrdir.²

Birinchi davr: 1991-1994 yillar.

O'tish davri parlamenti deb atash mumkin bo'lgan oxirgi chaqiriq Oliy Kengash davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil etishning, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli demokratik jamiyat qurishning huquqiy negizi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Parlament yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi va boshqa bir qator qonunlarni qabul qildi.

Ikkinchi davr: 1995-2004 yillar.

Oliy Kengash o'rniga O'zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti – Oliy Majlis shakllantirildi, Birinchi chaqiriq (1995-1999 yillar) Oliy Majlis tarkibida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan ko'rsatilgan 69 nafar, «Adolat» sosial – demokratik partiyasidan 47, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan 14 va «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan 7 nafar deputat bo'lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko'rsatilgan shaxslar tashkil etdi.

Ikkinchi chaqiriq Oliy majlis tarkibida siyosiy partiyalarning fraksiyalari va deputatlar bloklaridan tashqari quyida ro'yxati keltirilgan 13 ta qo'mita ham faoliyat ko'rsatdi: Bular qo'yidagilar,

- Byudjet, bank va moliya masalalari qo'mitasi;

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Сенати тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси 12.12.2002 й. 432-II-сон Конституциявий Қонуни)

- Iqtisodiyotni isloh qilish masalalari va tadbirkorlik qo'mitasi;
- Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi;
- Sanoat, qurilish, transport va aloqa masalalari qo'mitasi;
- Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi;
- Matbuot va axborot qo'mitasi;
- Ijtimoiy masalalar va bandlik qo'mitasi;
- Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo'mitasi;
- Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi;
- Agrar, suv xo'jaligi masalalari va oziq – ovqat qo'mitasi;
- Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi;
- Yoshlar ishlari qo'mitasi;
- Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi, Parlamentda, shuningdek 3 ta doimiy komissiya ishlagan;
- Reglament, odob va deputatlar faoliyatining ta'minoti komissiyasi;
- Normativ – huquqiy atamalar komissiyasi.

Qonun ijodkorligi deputatlar ishining bosh yo'nalishiga aylandi. 1995 – 2004 yillarda Oliy Majlis 240 ta qonun, 778 ta qaror qabul qildi, amaldagi qonun hujjatlariga 1573 ta o'zgartish va qo'shimcha kiritdi, 130 tadan ziyod xalqaro shartnoma va bitimni ratifikatsiya qildi. Mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy organi mazkur bosqichda davlat suvereniteti, fuqarolar tinchligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga, jamiyatda demokratik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga ko'maklashadigan qonunlar ishlab chiqish va qabul qilishga intiladi. Parlament nazorati bir palatali Oliy Majlis faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Oliy Majlis qo'mitalari va komissiyalari qonunlar, konvensiyalar, milliy dasturlar ijrosini nazorat qilish tartibida har yili 60 ga yaqin masalani ko'rib chiqdilar. Bunday nazorat Qoraqalpog'iston Respublikasi, mamlakatning barcha viloyatlari, shuningdek Toshkent shahrini qamrab oldi. Bir

palatali Oliy Majlisning nazorat faoliyatini tahlil etish bir qator qonuniyatlarni namoyon etdi.

Ya'ni mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini va huquqni tatbiq etish amaliyotini hisobga olgan holda muqaddam qabul qilingan qonunlarni takomillashtirish tamoyili yil sayin kuchaya bordi. Qonun ijodkorligi ishi borgan sari tarmoq tusini kasb etib, ayrim sohalardagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga intildi. Bir necha qo'mita va komissiyalarning birgalikdagi sa'y-harakatlari bilan tayyorlangan hamda muhokamaga kiritilgan huquqiy hujjatlarning soni ortib bordi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylov va ikki palatali parlamentga o'tish (2004 yil dekabr-2005 yil yanvar). Ikki palatali parlamentga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga o'zgartishlar kiritish asosida amalga oshirilgan konstitution islohotlar, shuningdek asosiy konstitusiyaviy qonunlar qabul qilinishi natijasida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazilib, u ikki bosqichdan iborat bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mamlakatni isloh etish modernizatsiya qilishning davlatimiz boshlig'i tomonidan olg'a surilgan ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan 2005-2012 yillarga mo'ljallangan qonunchilik faoliyati dasturini qabul qildi.

Ikki palatali parlament tashkil etilgach, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo'lsa-da, qabul qilingan qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi. Qonun loyihalarini partiyalarning fraksiyalarida oldindan ko'rib chiqish, Qonunchilik palatasi yalpi majlislarida huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilishda ularning fikrlarini albatta eshitish amaliyoti shakllandi.

1.2. Deputatlar saylovi va palata deputati.

Darhaqiqat, qonun chiqaruvchi organ davlat mexanizmida asosiy o'rin tutishi isbot talab qilmaydigan hol. Buning sababi shundaki, u ijro etuvchi hokimiyat amalga oshirishi lozim bo'lgan va sud hokimiyatining faoliyati uchun qonunchilik asosi bo'lib xizmat qiladigan umummajburiy talablarni o'rnatadi. Shuningdek, Oliy Majlis nazorat – tahlil, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha faoliyat olib boradi.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish Qonunchilik palatasi ishini to'g'ri tashkil etish masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Qonunchilik palatasi vakolatlarining samarali bajarilishi ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi.

Qonunchilik palatasi ishini tashkil qilishning muhim jihatlaridan biri – bu deputatlar o'rtasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishidir. Bunday taqsimotning asosiy maqsadi har bir deputatlar vazifalarining aniq – tiniq bo'lishiga erishishdir.

Odatga ko'ra, boshqa davlatlarda ham vazifalar quyi palata tarkibidagi rahbar shaxslar va devon xodimlari borligini nazarda tutgan holda taqsimlanadi. Palataning yuqoridagi tarkibi chet davlatlar tajribasiga xos bo'lib, uning ishini unumli tashkil etishda raisning roli, ayniqsa, muhim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi Spikeri:

- Qonunchilik palatasi va uning Kengashi majlislarini chaqiradi, ularda raislik qiladi;
- Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qilish;
- Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonunlarni ma'qullash uchun Senatga yuboradi;
- Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va Qonunchilik palatasi hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni tashkil etadi;
- Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
- Parlamentlararo aloqalarni amalga oshirish ishlariga hamda xalqaro parlament tashkilotlari ishi bilan bog'liq Qonunchilik palatasi guruhlarining faoliyatiga rahbarlik qiladi;
- Qonunchilik palatasi matbuot organlarining ustavlarini va tahrir hay'atlari tarkibini hamda ularning ishlashi uchun zarur harajatlar smetalarini tasdiqlaydi;
- Kengash bilan kelishilgan holda Qonunchilik palatasi matbuot organlarining bosh muharrirlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi;
- Qonunchilik palatasi matbuot organlarining faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi;
- Senat, boshqa davlat organlari, chet davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarda Qonunchilik palatasi nomidan ish ko'radi;
- Qonunchilik palatasi va uning Kengashi qarorlarini imzolaydi;
- Qonunchilik palatasi devoni faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi, deputatlar va Qonunchilik palatasi devoni ishlashi uchun zarur harajatlar smetalarini tasdiqlaydi va hokazolar.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'zining vakolatiga taalluqli masalalarni Kengash muhokamasiga kiritishga haqli. Qonunchilik palatasi Spikeri vakolatlarining kengligi uning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni to'g'ri taqsimlashni taqozo qiladi. Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari Qonunchilik palatasi Spikerining topshirig'iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi va Qonunchilik palatasi Spikeri yo'qligida yoki o'z vazifalarini amalga oshirishi mumkin bo'lmagan hollarda uning vazifasini bajarib turadi, degan qoida mustahkamlangan. Umuman, qonunchilik palatasi, uning organlari va deputatlarning vazifalarni bajarish Qonunchilik palatasi devoni xodimlari tomonidan qator tadbirlarni amalga oshirishini taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy shakli – bu uning majlislaridir. Uni o'tkazishning o'zi Qonunchilik palatasining faoliyati maslalani birgalikda muhokama qilish, to'g'ri o'tkazish esa erkin muhokama, oshkoralik va jamoatchilik fikrini hisobga olish prinsiplarini amalda ruyobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputat va Senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, **«Ilk bor ikki palatali parlamentga bo'lib o'tgan saylovlar O'zbekistonning yangi tarixida alohida, g'oyat muhim o'rin egalladi»³**. Zero, demokratiyaning eng ta'sirchan mexanizmi ham saylovlardir.

Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Aslida ham, saylov – demokratiya degani, demokratiya – bu saylov, demakdir. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida davlatimiz rahbari uqtirganidek, deputat degan yuksak ishonchga sazovor har qaysi inson avvalo o'zi uchun ovoz bergan odamlar haqida o'ylashi ham demokratiyaning yana bir belgi-alomati hisoblanadi.

³ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – Жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. – Т.: «Ўзбекистон», 2005. – Б.30.

Saylov haqida gap borar ekan, birinchi navbatda, mamlakatimizda ikki palatali parlamentni shakllantirish uchun puxta va keng qamrovli tayyorgarlik ishlari amalga oshirilganini alohida ta'kidlash joiz. qariyb to'rt oy davom etgan saylov kampaniyasi yakunlariga ko'ra, 2004 yil 26 dekabrda o'tgan saylov va 2005 yil 9 yanvardagi takroriy ovoz berishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasiga deputatlar to'liq, ya'ni 120 nafardan iborat tarkibda saylandi.

Shu yil 17-20 yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga bo'lib o'tgan saylovlarda Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan iborat tarkibda saylandi. Ushbu saylov natijalariga ko'ra, yuqori palata a'zolariga saylangan 84 nafar senator ro'yxatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va saylov qonunchiligiga muvofiq, Oliy Majlis Senatining o'n olti nafar a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 24 yanvardagi Farmoniga ko'ra fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida, davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan obro'li fuqarolar orasidan tayinlandi.

Yurtimizda ilk bor o'tkazilgan ikki palatali parlament saylovi natijasi o'laroq, xalqimizning ilg'or qarashli, fidoyi, bilimdon farzandlarini o'zida jamlagan, jamiyatimizning barcha qatlamlari vakillaridan tashkil topgan, Vatanimiz ravnaqi, barqarorligi, xalqimiz farovonligi yo'lida astoydil ishlashga bel bog'lagan, ishchan Oliy Majlis tarkibi shakllandi.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizda saylovlar Konstitusiyamiz, milliy saylov qonunchiligi talablari hamda xalqaro me'yor va qoidalarga to'liq amal qilgan holda, ochiqlik va siyosiy bag'rikenglik sharoitida o'tdi.

Saylovlarni fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligining o'ziga xos ko'rsatkichi desak xato bo'lmaydi. Bu jarayonda saylovchilarimiz o'zlarining siyosiy va fuqarolik saviyasi yetukligini, o'z hayoti, o'z kelajagini umume'tirof etilgan demokratik qadriyatlar asosida qurishga qodir ekanliklarini namoyon etdilar.

Tabiiyki, mamlakatimizda ikki palatali parlamentga saylovlar o'tkazish bo'yicha qabul qilingan ko'p jihatdan o'ziga xos tizim hamda saylovlar jarayonining o'zi O'zbekiston da faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlarining keskin jonlanishi va faolligini kuchaytirishda, ularning mas'uliyati ortishida g'oyat kuchli omil bo'ldi.

Saylovlarda 489 nafar Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod, shu jumladan, siyosiy partiyalardan – 435 kishi va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan mustaqil nomzodlar – 54 kishi ishtirok etdi. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi saylovchilarning eng ko'p ovozini oldi, bu partiyadan deputatlarning 34,2 foizi saylandi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidan deputatlarning 23,3 foizi saylandi. Shuningdek, O'zbekiston Fidokorlar milliy demokratik partiyasining 18 a'zosi, O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 11 a'zosi, O'zbekiston «Adolat» sosial-demokratik partiyasining 10 a'zosi saylandi.

Okruglarning deyarli 77 foizida bir deputatlik mandati uchun 4 tadan 6 tagacha nomzod kurash olib bordi. Aytish joizki, 1999 yilgi saylovda o'rtacha hisobda bitta saylov okrugiga 4-5 nomzod to'g'ri kelgandi.

Ana shunday kuchli siyosiy kurash, keskin raqobat mavjud ekaniga qaramay, saylovlarda qatnashgan barcha siyosiy partiyalar qonunga muvofiq ravishda parlamentning Jonunchilik palatasida o'z fraksiyalarini tashkil etish uchun yetarli o'ringa ega bo'ldi. Bu nainki munosib nomzodlar, balki ular mansub partiyalar ham saylovchilar tomonidan e'tirof etilganining belgisidir.

Saylovchilar tashabbuskor guruhlarini tomonidan Jonunchilik palatasiga ko'rsatilgan 54 ta nomzoddan 12 nafar mustaqil deputat saylandi. Bu deputatlar o'zlarini oddiy odamlar orasidan chiqqan, ularning dardu tashvishlarini yaxshi

biladigan nomzodlar deb ko'rsatgani va saylovchilarni shunga ishontira olgani uchun ham shunday natijalarga erishdi.

Saylovlar davlatning xalqaro maydondagi obro'sining ko'rsatkichi ekanini ham e'tibordan soqit qilmaslik kerak. Shu ma'noda, saylovlar biz uchun yana bir sinov bo'ldi va xalqimiz bu sinovdan yorug' yuz bilan o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy shakli – bu uning majlislaridir. Uni o'tkazishning o'zi Qonunchilik palatasining faoliyati masalalarni birgalikda muhokama qilish, to'g'ri o'tkazish esa erkin muhokama, oshkoralik, va jamoatchilik fikrini hisobga olish prinsiplarini amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputat va Senatorlar umumiy sonining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitusiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Respublika Konstitusiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi raislari, Bosh prokurori, Markaziy bank boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Shuning uchun deputatlarni majlislarda muntazam va samarali ishtirokini ta'milash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, Qonunchilik palatasi kollegial organ bo'lib, uning vakolatlariga doir masalalar albatta deputatlarning birgalikdagi muhokamasi uning faoliyati asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Qonunchilik palatasi majlislaridagi masalalar bo'yicha ovoz berish shakl va uslublarini belgilash katta ahamiyatga ega. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida"gi qonunning 11-moddasiga ko'ra Qonunchilik palatasining qarorlari uning majlislarida ochiq yoki yashirin ovoz berish orqali qabul qilinadi. Ochiq ovoz berish nomma-nom, ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalangan holda yoki yashirin ovoz berish byulletenlaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Qoida tariqasida, Qonunchilik palatasi majlisida ovozlarni hisoblashning elektron tizimidan foydalanilishi ustidan nazoratni Qonunchilik palatasi deputatlari jumlasidan bo'lgan guruh amalga oshiradi. Bu guruh ovozlarni to'g'ri tashkil etish uchun javob beradi. Agarda deputatlarda elektron tizimni to'g'ri ishlashi haqida

shubha paydo bo'lsa, ular byulletenlardan foydalangan holda ovoz berishni tanlashlari mumkin.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi qonunning 17-moddasiga ko'ra Qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibda qo'mitalar saylanadi.

Milliy qonunchiligimizda bu vazifalarni amalga oshirish uchun qo'mitalar tashkil qilinsa, bir qancha xorijiy mamlakatlarda (Yaponiya, Fransiya, Italiya) bu vazifalar komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi⁴.

Qo'mita raisi, uning o'rinbosari va qo'mita a'zolari lavozimlari deputatlarning qaysi partiya yoki guruhga mansubligini hamda saylovda saylovchilarning qancha ovozini olganligini inobatga olgan holda yaxlit (umumiy) qaror bilan belgilanadi.

“O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida”gi qonuni 7-moddasining uchinchi qismiga ko'ra Qonunchilik palatasida reglament; Byudjet, bank va moliya masalalari; Iqtisodiy masalalar va tadbirkorlik; Qonunchilik va sud-huquq masalalari; Mehnat va ijtimoiy masalalar; Mudofaa va xavfsizlik masalalari; Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitalari tuzilishi shart. Qonunchilik palatasida boshqa qo'mitalar ham tuzilishi mumkinligi ko'rsatilib, ularning umumiy soni, qoida tariqasida, o'ntadan oshmasligi kerakligi mustahkamlangan.

Mazkur qoidaga asosan Qonunchilik palatasida Byudjet va iqtisodiy islohotlar, Qonunchilik va sud-huquq masalalari, Mehnat va ijtimoiy masalalar, Mudofaa va xavfsizlik masalalari, Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar,

⁴ Конституции зарубежных государств. Учебное пособие. Москва: “Бек”, стр.50-55, 60-61.

Sanoat, qurilish, va savdo masalalari, Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya, fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari, Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitalari tuzilgan⁵.

Shuningdek, Qonunchilik palatasi Normativ-huquqiy atamalar komissiyasini tuzilgan. Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkinligi mustahkamlangan.

Qonunchilik palatasi deputatlari siyosiy, professional va boshqa asosda fraksiyalar va deputatlar guruhlar shaklida deputatlar birlashmalarini tuzishi mumkin.

Demak, mamlakatimiz parlamenti faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlariga muvofiq, deputatlar birlashmalarining ikki shakli-fraksiyalar va deputatlar guruhlar mavjud.

Fraksiya siyosiy partiyadan ko'rsatiladigan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir. Deputatlar guruhlarini Qonunchilik palatasi tarkibiga saylangan, siyosiy partiyadan ko'rsatilmagan deputatlar tuzishi mumkin.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida”gi qonunning 9-moddasiga muvofiq, Qonunchilik palatasining kamida 9 nafar deputati fraksiya yoki deputatlar guruhini tuzish huquqiga ega. Qonunchilik palatasining deputati faqat bir fraksiya yoki deputatlar guruhining a'zosi bo'lishi mumkin. Lekin, bundan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining har biri fraksiya yoki deputatlar guruhi a'zosi bo'lishi kerak, deb xulosa qilish kerak emas. Binobarin, saylangan deputat hech bir fraksiya yoxud deputatlar guruhiga kirmaslikka ham haqli.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатасининг “Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатасининг қўмиталари тўғрисида”ги 2005 йил 27 январдаги 14-І-сонли қарори.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasiga binoan Qonunchilik palatasida bugungi kunga qadar beshta siyosiy partiya fraksiyalari tuzildi. Bular O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi – 40 kishidan iborat, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi – 27 kishidan iborat, Fidokorlar milliy-demokratik partiyasi – 18 kishidan iborat, Milliy tiklanish partiyasi – 11 kishidan iborat, "Adolat" sosial demokratik partiyasi – 10 kishidan iborat fraksiyalaridir.

Qonunchiligimizning e‘tiborga loyiq jihatlaridan yana biri shuki, Qonunchilik palatasidagi deputatlar guruhlarining vakolatlari doirasi siyosiy partiyalar fraksiyalari vakolatlari doirasiga tenglashtirildi. Ayni chog‘da, ularning fraksiyalar bilan bir qatorda va ular bilan teng ravishda ish yurita olishining huquqiy asoslari mustahkamlandi.

1.3. Palataning tuzilishi va faoliyat tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatasining Qonunchilik palatasi deb nomlanishining asosiy ma'nosi quyi palataning qonunchilik sohasida mutloq vakolatga ega ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasining Qonunchilik palatasi deb nomlanishida uning qonun ijodkorligi sohasida ustuvor ahamiyatga ega ekanligi doimiy ravishda faoliyat ko'rsatishi hamda professional mutaxassislardan iborat tarkibida bo'lishligi kabi omillar ham xizmat qilgan.

Parlamentlarning quyi palatalari turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi. Masalan; fransiyada - Milliy Majlis, Germaniyada – Bundestag, AQShda – Vakillar palatasi, Rossiyada – Duma, Polshada – Seyt nomlari bilan yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 77-moddasining birinchi bandiga asosan, Qonunchilik palatasiga saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida 120 deputat saylanadi. Qonunchilik palatasini tashkil qilishda va shakllantirishda bevosita saylov muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilik palatasiga saylovlar saylov yilining dekabr oyining uchinchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida o'tkaziladi. Qonunchilik palatasi bevosita O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan – to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Qonunchilik palatasining vakolat muddati – 5 (besh) yil. Vakolat muddati tugagach, Qonunchilik palatasi yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi ish boshlangunga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muhim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Qonunchilik palatasining deputati bo'lishi mumkin. Ayni bir shaxs bir paytning o'zida Qonunchilik palatasi deputat va Senat a'zosi bo'lishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasi deputatining maqomi qonun bilan belgilanadi. Qonunchilik palatasi o'zining vakolatlariga mos masalalar yuzasidan, shuningdek, palataning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi umumsiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa masalalar yuzasidan bayonotlar va murojaatlar bilan chiqishi mumkin, ular palataning qarori bilan rasmiylashtiriladi.

Qonunchilik palatasi qarorlari, ushbu qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Konstitutsiyaning 78-moddasiga asosan, Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlarni hamda qonunlarning qabul qilinishi, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
3. O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazish to'g'risida va uni o'tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;
4. O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hokimiyat tarmoqlari tizimini hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining vakolatlarini belgilash;
6. O'zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini qabul qilish va ularning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;
7. Boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yo'li bilan tartibga solish;
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini qabul qilish, hamda uning ijrosini nazorat qilish;

9. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning joriy qilinishi;
10. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy – hududiy tuzilishi masalalarini qonun yo'li bilan tartibga solish, chegaralarni o'zgartirish;
11. Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularni nomini hamda chegaralarini o'zgartirish;
12. Davlat mukofatlari va unvonlarini ta'sis etish;
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash;
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining tuzish;
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, ko'rib chiqish va tasdiqlash;
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili va uning o'rinbosarlarini saylash;
17. O'zbekiston Respublikasi hisob palatasining hisobotini ko'rib chiqish;
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasiga hujum qilganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma maburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush holati e'lon qilish to'g'risidagi farmonni tasdiqlash;
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umumiy va qisman safarbarlik e'lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilinishini uzaytirish yoki tugatish to'g'risidagi farmonlarni tasdiqlash;
20. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarning ratifikasiya va denosasiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish;
21. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar qoida tariqasida, avval qonunchilik palatasida, so'ngra Senat ko'rib chiqiladi.

Qonunchilik palatasining mutloq vakolatlari jumlasiga:

1. Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash;
2. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurorning taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish;
3. Reglamentni hamda o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;
4. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish kiradi.

Qonunchilik palatasi faoliyatining tashkiliy shakli, uning Qonunchilik palatasi sessiyalari davrida o'tkaziladigan majlislardir.

Qonunchilik palatasining birinchi majlisining O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining Raisi ochadi va Qonunchilik palatasi Spikeri saylangunga qadar unda raislik qiladi.

Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Senat raisi, Bosh vazir, vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudlari, Bosh prokuror ishtirok etishlari mumkin.

Qonunchilik palatasi majlislarini tashkil qilish va o'tkazish tartibi Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi va Qonunchilik palatasi deputati davlat hokimiyati davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish talabi bilan parlament so'rovi yo'llashga haqli.

Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari Qonunchilik palatasi reglamentida belgilangan muddatlarda Qonunchilik palatasi majlislarida beradilar.

Qonunchilik palatasi Spikeri saylovdan keyingi birinchi majlisda Qonunchilik palatasining deputatlari orasida yashirin ovoz orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining Spikeri saylanadi. Qonunchilik palatasi Spikeriga nomzod ko'rsatish va saylash tartibi Qonunchilik palatasi Reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi Spikeri o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan farmoyishlar chiqaradi. Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari Qonunchilik palatasi deputatlar orasidan yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasi vakolati muddatiga saylanadi.

Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari Qonunchilik palatasi Spikerining topshirig'iga binoan uning ayrim vazifalarini bajaradi. Qonunchilik palatasi Spikerining o'rinbosarlari o'z vazifalarini bajarish davrida siyosiy partiyaga a'zolidigining to'xtab turadi hamda Fransiya va boshqa deputatlar birlashmasi tarkibiga kirishi mumkin emas.

Qonunchilik palatasi Kengashi, Qonunchilik palatasi faoliyatining samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib berish, qonun loyihalarini tayyorlash ishini rejalashtirish masalasini dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Qonunchilik palatasi Kengashi tuziladi.

Qonunchilik palatasi kengashi o'z vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qarorlar qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarini saylash, qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda palata tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasining deputatlari orasidan rais, uning o'rinbosari va a'zolaridan iborat tarkibidan qo'mitalar saylanadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari Qonunchilik palatasi oldida ma'sul va unga hisobdordir.

Qonunchilik palatasi qo'mitalari ishini o'z rejalariga, shuningdek, Qonunchilik palatasi, uning Spikeri va Kengashi topshiriqlari hamda tavsillariga muvofiq tashkil etadi.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining majlislari ochiq o'tkaziladi. Zarurat bo'lganida Qonunchilik palatasi qo'mitalari yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunchilik palatasi qo'mitalarining davlat organlariga yuborilayotgan qarorlari ular tomonidan ko'rib chiqilishi shart, natijalari to'g'risida agar qarorda boshqacha qoida boshlangan bo'lsa, uzog'i bilan bir oydan kechiktirmay xabar qilinishi kerak.

Qonunchilik palatasi muayyan vazifalarni bajarish uchun komissiyalar tuzishi mumkin. Komissiyalar Qonunchilik palatasi majlisida qonunchilik deputatlari orasida tuziladi. Ayni paytda komissiyani tuzishdan kuzlangan maqsad va uning vakolatlari belgilandi. Komissiyalarni tashkil etish va ularning faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi reglamentida belgilanadi.

Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini, qoida tariqasida, bir necha o'qishda ko'rib chiqadi. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan palata deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovoz berish ochiq yoki yashirin bo'lishi mumkin. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan kundan e'tiboran un kundan kechiktirmay Senatga yuboriladi. Senat qonunni ma'qullash yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasiga qaytariladi. Bunda Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin.

Kelishuv komissiyasi ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni o'z ichiga olgan xulosa qabul qilinadi. Kelishuv komissiyasini tuzish tartibi, komissiyaning tartibi va ishi reglamentda belgilanadi. Qonunchilik palatasi kelishuv komissiyalarining xulosasi taqdim etilgan kundan

e'tiboran un kun ichida uning takliflarini ko'rib chiqishi va qaror qabul qilishi kerak. Qonunchilik palatasi kelishuv komissiyasining takliflari yuzasidan deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qiladi.

Senat tomonidan ma'qullangan qonun imzolanish va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga un kun ichida yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonun o'ttiz kun ichida imzolanadi va e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytirishga haqli.

Qonunchilik palatasi devoni tuzilmasi, shtatlari, xodimlarining mehnat haqi miqdori va moddiy texnika ta'minotining, shuningdek, ularning ishlashi uchun zarur harajatlar Qonunchilik palatasi devonining tashkil etilishi va faoliyati tartibi Qonunchilik palatasi Spikeri tomonidan tasdiqlanadigan Nizomda belgilanadi. Qonunchilik palatasi faoliyatini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining mablag'lari hisoblanadi. Qonunchilik palatasi o'z matbuot organlariga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat deb nomlanadi. «Senat» termini yuridik atama sifatida ko'pchilikka tanish siyosiy, iqtisodiy va huquqiy adabiyotlarda parlamentning yuqori palatasi Senat deb nomlanadi. Senat atamasi «SENAT» lotincha so'zdan olingan bo'lib, qadimgi Rimda ilk davlatchilik vujudga kelgan zamonlardan beri davlat hokimiyati Oliy organining nomi sifatida ishlatilib kelingan. Uning lug'aviy mazmuni oqsoqollar kengashi yoki maslahat organi degan ma'nolarni anglatadi.

II– BOB. Qonunchilik palatasi deputatlarining Konstitusion-huquqiy maqomi.

2.1. Deputatlarning Konstitusiyaviy maqomi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin qisqa davr ichida O'zbekistonda parlament vakolatlarini takomillashtirishga qaratilgan, deputatlar huquqlari, majburiyatlar hamda vakolatlarini to'ldiradigan qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, bu islohotlar:

birinchidan, qonunchilik faoliyatini samaradorligini oshirish;
ikkinchidan, parlament nazorati vazifalarini kengaytirish va kuchaytirish;
uchinchidan, parlament faoliyatida regionlar rolini kuchaytirish;
to'rtinchidan, parlamentni barqaror ishlashi uchun kafolatlar tizimini yaratish;
beshinchidan, deputatlarning professional sifatlarini va umuman, parlamentarizm madaniyatini rivojlantirishga qaratilgandir.

Parlament tashkiliy jihatdan keng tarmoqli bo'lganligi sababli ham davlat hokimiyati tizimida, umuman davlatchilikda alohida o'rin tutadi.

Parlament palatalarini shakllantirish usuli parlament a'zosining nomlanishida ham ma'lum darajada aks etadi: odatda, quyi palatalarning a'zolarigina deputat deb, aksariyat mamlakatlarda yuqori palatalarning a'zolari esa – senatorlar deb ataladi (ular o'z mandatlarini nafaqat saylash, balki tayinlash orqali va boshqa usullarda ham oladilar).

Qonunchilik palatasi deputatlari xalqning hokimiyat vakillik organlarida faoliyat ko'rsatuvchi to'laqonli vakilidir. Respublikamizning mustaqilligini mustahkamlashda, huquqiy davlat qurishda, chin ma'nodagi demokratiyaga erishishda deputatlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi Huquqshunos olim R.Qayumov "deputatning huquqiy maqomi-bu deputatlarning huquqiy normalarda

belgilangan huquqlari, majburiyatlari va burchlari, ular faoliyatining shakllari va vakolatlarini yig'indisi demakdir" ⁶deb ta'kidlagan.

Shunday qilib, deputatning huquqiy maqomi ko'p hollarda unga yuklangan vazifalarni sifatli va belgilangan tartibda amalga oshirishi uning huquqiy kafolatini qay darajada belgilab berilganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Deputatlik maqomi bilan bog'liq masalalar tegishli tartibda huquqiy tartibga solinishi deputatlik faoliyatini to'siqlarsiz va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi, uning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash bilan bir qatorda deputatning xalq va jamiyat oldidagi majburiyatini kuchaytiradi.

Qonunchilik palatasi deputati va senator faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida va qator qonun normalarida: "Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi , "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamenti to'g'risida"gi qonunlarida va boshqa qonun hujjatlarida aniq belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati senator faoliyatining huquqiy asoslarini ifodalovchi huquqiy normalar ichida konstitusiyaviy normalar alohida ahamiyatga ega.

Konstitusiyaning 87-88-moddalarida deputat va senatorlarning huquqiy maqomining umumiy asoslari belgilab berilgan, ya'ni deputat va senatorlarning asosiy vazifalari qayd qilinib, daxlsizlik huquqi, deputatlik va senatorlik faoliyatiga haq to'lash kabi umumiy masalalar tartibga solingan.

⁶Қаюмов Р. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи. Т. Адолат.. 1998 й 3006

Deputat va Senator maqomi 2004 yil 2 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi qonunida kengroq va to'laroq tartibga solingan. Ushbu qonunda deputat va senatorlarning maqomiga tegishli barcha masalalarni - kimlar deputat va senator bo'lishi, ularning vakolat muddati, deputatlikni tasdiqlovchi vositalar, deputatning Oliy Majlisdagi ishi kabi masalalarni qonuniy asosda mustahkamlagani, deputatning huquq hamda majburiyatlarini, deputatlarning saylovchilar, siyosiy partiyalar bilan olib boradigan ishlarini, deputatning parlament so'rovini, deputat odobini o'z ichiga qamrab olgan.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatini huquqiy maqomini asosiy xarakterli tomonlarini aniqlashdan oldin, deputat - parlamentariy yoki o'zining saylovchilarining yoxud uning nomzodini ilgari surgan tashkilotning vakilimi degan savolning yechimini topish lozim. Bu savolga aniq javob berish uchun deputatlik mandatining tabiatini ochish lozim.

Shu qatorda bu savolning javobi deputatning huquqiy maqomining mazmuni, uning vazifalari va funksiyalari, davlat xizmatchilari tizimida tutgan o'rnini aniqlash bilan uzviy bog'liqdir.

Suverenitetni fransuz mutafakkuri J.J.Russo o'z asarida "Xalq deputatlari xalqning bevosita vakili bo'la olmaydilar, ular faqat undan vakolat olgan kishilardir"⁷, deb ta'kidlagan. Xalq deputatlarga hokimiyat vakolatlarini beriladi, deputatlar esa o'z navbatida qonun qabul qilish orqali xalqning umumiy irodasiga muvofiq harakat qiladilar.

Yuqoridagi fikrdan deputatning huquqiy maqomini belgilovchi muhim prinsip - ya'ni imperativ mandat prinsipi kelib chiqadi. Mandatining ikki turi: *imperativ deputat mandati* va *erkin deputat mandati* mavjud. Ular bir - biridan farqlanishi, uning xususiyati deputat va unga ovoz bergan saylovchilarning o'zaro munosabatlari prinsiplari bilan belgilanishini ko'rsatadi.

⁷ Руссо Ж.Ж. Трактаты. Москва: Наука, 1969й, 222й

Deputat mandati muammosi deputat parlament a'zosi sifatida kimning xohish-irodasini ifoda etishi, parlament, uning palatalari qarorlarini qabul qilishda ishtirok etar ekan, u kimning manfaatlarini himoya qilishi lozim, o'zining parlamentdagi faoliyati uchun deputat o'z saylovchilari oldida siyosiy-huquqiy javobgar bo'ladimi, saylovchilar deputatlarga ijro etish majburiy bo'lgan yo'l-yo'riqlar berish va uni chaqirib olishga haqlimi, degan savollar bilan bog'liq

O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq, Qonunchilik palatasi deputatlari ham o'z saylovchilar manfaatlarini, ham butun xalq manfaatini aks ettiradilar, xalq irodasini ifoda etuvchi qonunlar qabul qiladilar.

Shuning uchun, Qonunchilik palatasi deputatlariga qonun chiqaruvchi organga saylangan, o'z saylovchilari oldida to'g'ridan-to'g'ri javobgar bo'lmagan, o'z faoliyatini ma'lum bir guruhning vakili sifatida emas, balki mamlakatning barcha fuqarolari, boshqacha so'z bilan aytganda butun xalqning vakili sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Shunday holatda deputat o'z harakatlarida juda keng mustakillikka ega bo'ladi, o'z faoliyat ko'rsatishida shaxsiy fikr va qarashlariga asoslangan holda butun xalq manfaatidan kelib chiqadi. Deputatning bunday maqomi huquqiy fan tizimida erkin mandat deb yuritiladi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning parlamentlarida deputatlar odatda professional tarzda ish olib boradilar va erkin mandatga egadirlar. Bu mamlakatlarning konstitusiyalarida imperativ mandat harakati to'g'ridan-to'g'ri taqiqlangan. Masalan, Bolgariya Respublikasi Konstitusiyasining 67-moddasida "deputatlar nafaqat o'z saylovchilarining, balki butun xalqning vakili hisoblanadi. Majburiy vakolatlar belgilanishi qonuniy kuchga ega emas", - deb belgilangan. Bunday normalarni, Fransiya (27-modda), Italiya (67-modda), Ispaniya (67-modda) konstitusiyalarida va Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy Qonunida (38-modda) uchratish mumkin⁸.

⁸ Конституция мира: Сб. Конституции государства мира (Сост. У.Таджиханов, А.Саидов) Т. 1997 том 1-7

Ayrim xorijiy mamlakatlarida esa, imperativ mandat harakati Konstitutsiyada taqiqlanmagan bo'lsada, deputatlarning maqomini belgilashda muhim bo'lgan qonun hujjatlarida taqiqlangan.

Bunda ushbu mamlakatlar erkin mandat, ya'ni majburiy vakolatlar belgilanmasligi parlamentar tizimning demokratikligining asosiy belgisi ekanligidan kelib chiqishgan. Bunday mandatli deputat mamlakatning barcha fuqarolarini manfaatlarini ifodalaydi va o'z saylovchilarining irodasiga bevosita tobe hisoblanmaydi.

Asosiy qonunda ta'kidlanishicha, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatiga saylanish huquqiga 25 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari egadirlar. Deputatlar fuqarolar tomonidan bevosita saylanadilar. Senatorlar esa xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlarining qo'shma majlisida har bir hududiy birlikdan 6 nafardan saylanadilar. Senatning o'n olti nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Konstitutsiyaning 88-moddasiga ko'ra, Qonunchilik palatasi deputatlar va senatorlarga ularning deputatlik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi. Mazkur konstitutsiyaviy qoidani izohlashda shuni ta'kidlash joizki, konstitutsiyaviy huquqda deputatning huquqiy maqomi indemnitet va immunitet orqali tavsiflanadi¹.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati faoliyatining huquqiy asoslari va huquqiy maqomining tarkibiy qismi sifatida immunitet va indemnitet hisoblash maqsadga muvofiqdir.

Indemnitet deputatga parlamentdagi ishi uchun turli moddiy rag'batlar berilishi tushuniladi, bunda avvalo, professional parlament faoliyati uchun haq-to'lovlar ajratilishi nazarda tutiladi⁹.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti to'g'risida"gi Qonunida¹⁰ "Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyatiga asoslanadi", - deb belgilangan.

Bu holatni ham deputat faoliyatining huquqiy asosi va maqomining muhim belgisi sifatida qarash mumkin. Bu norma bir tomondan Oliy Majlisni professional parlament sifatida faoliyat ko'rsatishini belgilasa, ikkinchi tomondan har bir deputatga uning faoliyat ko'rsatishiga yordam beruvchi ta'minot bilan ta'minlanishi lozimligini keltirib chiqaradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Qonunchilik palatasining vakolatlari muddatiga, ya'ni besh yil muddatga saylanadi. Shu boisdan deputatning vakolatlari saylangan kundan boshlanadi va Qonunchilik palatasi vakolatlari tugagandan so'ng yangi chaqiriq saylovlar o'tkazilganda tugaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining senator etib saylangan deputati vakolatlarining muddatidan ilgari tugatilishi uning senatorlik vakolatlari tugatilishiga olib keladi.

Alohida hollarda deputatning, senatorning vakolatlari tegishincha Qonunchilik palatasining, Senatning qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Deputat, senator degan yuksak nomga dog' tushiruvchi xulq-atvor bunday masalani ko'rib chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

Deputatning, senatorning vakolatlarini boshqa shaxsga topshirish mumkin emas.

⁹ Ўша жойда

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Қонунлар тўплами 2003 й 9-10 сон

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining huquqiy maqomining muhim elementi - bu uning deputatlik huquq va majburiyatlaridir. Deputatning huquq va majburiyatlari doirasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a‘zolarining maqomi to‘g‘risida”gi Qonunida to‘liq aniqlangan. Shu bilan bir qatorda ularning huquqlari va majburiyatlari xususidagi moddalarni aniqlashtirish hamda ularning ro‘yxatini alohida belgilash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Aytish lozimki, deputatlarning ayrim vakolatlari, huquqlari ularning majburiyatlari sifatida ham tushunilishi mumkin.

2.2. Deputatlar statusi to'g'risidagi qonunchilik.

O'zbekiston Respublikasida deputatlar statusi qonunchilik bilan ta'minlangan. «O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi Reglamenti to'g'risida» gi qonunning 7- moddasining uchinchi qismiga ko'ra Qonunchilik palatasida reglament;byudjet, bank va moliya masalalari, iqtisodiy masalalar va tadbirkorlik, qonunchilik va sud-huquq masalalari, mehnat va ijtimoiy masalalar, mudofaa va xavfsizlik masalalari, xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitalari tuzilishi shart.

Qonunchilik palatasida boshqa qo'mitalar tuzilishi mumkinligi ko'rsatilib, ularning umumiy soni, qoida tariqasida, o'ntadan oshmasligi kerakligi mustahkamlangan.

Mazkur qoidaga asosan Qonunchilik palatasida byudjet va iqtisodiy islohotlar, qonunchilik va sud-huquq masalalari, mehnat va ijtimoiy masalalar, mudofaa va xavfsizlik masalalari, xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, sanoat, qurilish va savdo masalalari, agrar, suv xo'jaligi masalalari, demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini – o'zi boshqarish organlari qo'mitalari tuzilgan.

Deputat o'z maqomidan fuqarolarning, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazadigan tarzda foydalanishi mumkin emas.

Deputatlik odobi buzilgan taqdirda deputatning xulq-atvori to'g'risidagi masala tegishli palata tomonidan yoki uning topshirig'iga binoan palataning organi tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek, ular tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari ham mumkin emas. Mazkur konstitusiyaviy qoida deputatlikning boshqa mansab bilan nomutanosibligi prinsipini mustahkamlaydi¹¹. Bir qator mansab lavozimlarining deputatlik bilan nomutanosibligi prinsipi deputatning moliyaviy va iqtisodiy

¹¹ Тожионов У ва бошқалар, Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи Т. 2001 510 б

jihatdan muayyan ta'sir doirasiga tushib qolishining oldini olishga qaratilgan. Deputat bunday omillar ta'siridan holi bo'lsa, xususiy manfaatlarini cheklay olsa, xalq, jamiyat manfaatlarini xolis va to'la-to'kis ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Agarda yig'ilishda raislik qiluvchi so'zga chiqqan deputatga murojaat qilsa, u o'z nutqini darhol to'xtatishi lozim.

Qonunchilik palatasi reglamentida majburiyat va javobgarlik turlarini aniq belgilanishi, ularni qo'llash tartibi belgilanishi bevosita palata ish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, deputatlarning faolligini oshirishga, deputatlik etikasiga qat'iy rioya qilishiga olib keladi.

Davlat hokimiyati vakillik organlari tizimida xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi muhim o'rin tutadi. Viloyat va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga 60 ta, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlariga 30ta deputatlar bevosita xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanadilar.

Viloyat, tuman va shahar Kengashining deputati faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi, Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risidagi qonunlarida o'z ifodasini topgan.

Deputat tegishli xalq deputatlari Kengashining vakolatlari muddatiga saylanadi. Deputatning vakolatlari muddatidan ilgari tugatish asoslari "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida"gi qonunlarining 3- moddasida ko'rsatib o'tilgan.

Alohida hollarda deputatning vakolatlari tegishli xalq deputatlari Kengashi qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Deputat degan yuksak nomga dog' tushiruvchi xulq-atvor bunday masalani ko'rib chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risidagi qonunlarida deputatning huquqlari ko'rsatib o'tilgan.

Qonunga ko'ra deputat:

- tegishli xalq deputatlari Kengashining doimiy hamda muvaqqat komissiyalariga saylash va saylanishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashi majlisining kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi hamda bu masalalarning mohiyati yuzasidan takliflar kiritish va mulohazalar bildirishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslarning nomzodlari bo'yicha fikr bildirishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida munozaralarda ishtirok etishga, ma'ruzachi va raislik qiluvchiga savollar berishga;

- deputat so'rovi bilan murojaat etishga;

- o'z takliflarini asoslab berish uchun so'zga chiqishga va ovoz berish sabablari yuzasidan izoh berishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida raislik qiluvchiga majlisda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z nutqi, taklifi yoki mulohazasi matnini topshirishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashi tarkibidagi o'zi a'zo bo'lgan organning qaroriga qo'shilmagan taqdirda o'z nuqtai nazarini tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida bayon etishga yoki bu haqda mazkur xalq deputatlari Kengashi rahbariga yozma ravishda ma'lum qilishga;

- tegishli xalq deputatlari Kengashiga hisobdor yoki uning nazorati ostidagi har qanday organ yoxud mansabdor shaxsning hisoboti yoki axborotini mazkur xalq deputatlari Kengashining majlislarida eshitish to'g'risida taklif kiritishga;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining ijro etilishini, shuningdek, tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining bajarilishini tekshirish to'g'risida ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;

tegishli xalq deputatlari Kengashi majlislarining stenogrammalari bilan tanishishga;

saylovchilar bilan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, siyosiy partiya tashkiloti bilan uchrashuvlar o'tkazishga;

fuqarolarning huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini buzish hollari yoki qonun hujjatlarini buzishning boshqa hollari ma'lum bo'lib qolgan taqdirda ularga darhol chek qo'yish choralarini ko'rish talabi bilan tegishli organlar hamda mansabdor shaxslarga murojaat etishga haqli.

Deputat huquqlari bilan bir qatorda majburiyatlarga ham ega. Ya'ni, deputat tegishli xalq deputatlari Kengashining majlislarida hamda mazkur Kengash tomonidan tuzilgan qaysi komissiya tarkibiga saylangan bo'lsa, shu komissiyaning majlislarida qatnashishi, ovoz berishda tegishli xalq deputatlari Kengashining reglamentida belgilangan tartibda shaxsan ishtirok etishi shart.

Deputatning tegishli xalq deputatlari Kengashining hamda qaysi komissiya tarkibida bo'lsa, shu komissiyaning majlisida ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, bu haqda mazkur xalq deputatlari Kengashi yoki komissiya rahbariga oldindan xabar qilishi shart.

Xalq deputatlari Kengashining deputati o'z okrugi saylovchilari bilan, uni deputatlikka nomzod qilib ko'rsatgan siyosiy partiya va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi bilan muntazam aloqa bog'lab turadi, tegishli xalq deputatlari Kengashida ularning manfaatlarini ifoda etadi.

Deputat belgilangan kunlarda fuqarolarni qabul qiladi. Saylovchilardan tushgan murojaatlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqadi, ularni hal etish chora-tadbirlarini ko'radi.

Deputat vaqti-vaqti bilan, lekin yiliga kamida ikki marta saylovchilarga o'z faoliyati to'g'risida axborot beradi.

Deputat tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan deputat so'rovi yuborishga haqlidir.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari deputat so'roviga javobni deputatga mazkur so'rov olingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay yuboradilar.

Sudlarning raislariga, prokurorlarga, surishtiruv va tergov organlarining rahbarlariga yo'llangan deputat so'rovi ularning ish yurituvdagi muayyan ishlar va materiallarga taalluqli bo'lishi mumkin emas.

Deputat so'rovlari bo'yicha axborot tegishli xalq deputatlari Kengashining majlisida muhokama qilinadi.

Deputat xalq vakili ekan, albatta odob qoidalariga qat'iy rioya etishi lozim. Deputatlik odobi buzilgan taqdirda deputatning xulq-atvori to'g'risidagi masala tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan yoki uning topshirig'iga ko'ra tegishli xalq deputatlari Kengashining organi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Xalq deputatlariga o'z vakolatlarini moneliiksiz hamda samarali amalga oshirishi uchun shart-sharoit kafolatlanadi, uning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatini qonun bilan muhofaza qilinadi.

Deputatning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilgan shaxslar qonunga muvofiq ma'muriy, jinoiy yoki o'zga tarzda javobgar bo'ladilar. Deputatni haqorat qilish, shuningdek, unga nisbatan tuhmat qilish qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Deputatlik vakolatlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish maqsadida deputatga qanaqa tarzda bo'lmasin ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Deputat oldidagi o'z vazifalarini bajarmaydigan, uning ishiga to'sqinlik qiladigan, bila turib unga yolg'on axborot beradigan, deputat faoliyatining kafolatlarini buzadigan mansabdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Deputat o'zining vakolatlari muddati mobaynida daxlsizlik huquqiga ega bo'ladi.

Deputat tegishli xalq deputatlari Kengashida tegishli masala yuzasidan ovoz berish chog'ida fikr bildirganligi yoki nuqtai nazarini bayon etganligi uchun hamda

o'z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi, shu jumladan, vakolatlari muddati tugaganidan keyin ham javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Agar shunday xatti-harakatlar munosabati bilan deputat haqorat qilishga, tuhmat qilishga yoki qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan boshqa qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, u daxlsizlik huquqidan mahrum qilingan taqdirdagina javobgarlikka tortiladi

Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala tegishincha viloyat, tuman, shahar prokurorining yoki yuqori turuvchi prokurorning taqdimnomasiga binoan xalq deputatlari Kengashi tomonidan o'n kun ichida hal etiladi. Senator etib saylangan deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish masalasi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda hal etiladi.

Deputatni javobgarlikka tortishga rozilik olish to'g'risida quyi prokuror tomonidan kiritilgan taqdimnomani yuqori turuvchi prokuror chaqirtirib olishi mumkin.

Deputatni jinoiy javobgarlikka tortishga, ushlab turishga, qamoqqa olishga yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni qo'llashga rozilik olish to'g'risidagi prokuror taqdimnomasi tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi, sessiyalar oralig'idagi davrda esa mazkur xalq deputatlari Kengashi rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilib, qabul qilingan qaror keyinchalik tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Kengashining deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish masalasiga doir qarori darhol tegishli prokurorga yuboriladi.

Deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olgan prokuror ish yuritish tamomlangan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida tegishli xalq deputatlari Kengashiga ishni tergov qilish, sudda ko'rib chiqish natijalari to'g'risida xabar qilishi shart.

Tegishli xalq deputatlari Kengashining deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etishi unga nisbatan jinoyat ishini yuritishni yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni nazarda tutadigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishni istisno etadigan va bunday ishlarni tugatishga sabab bo'ladigan holat hisoblanadi.

Deputat o'z vakolatlarini amalga oshirayotganda guvohnomasini ko'rsatib, tegishli viloyat, tuman va shahar hududida joylashgan korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarga moneliqsiz kirish huquqidan, shuningdek, ularning rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslari tomonidan darhol qabul qilinish huquqidan foydalanadi.

Faoliyati davlat siri hamda qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir bilan bog'liq korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga deputatning kirish tartibi qonunda belgilanadi.

Deputat o'z vakolatlarini ishlab chiqarish yoki xizmat vazifalaridan ajralmagan holda amalga oshiradi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari deputatni u o'z deputatlik vazifalarini bajaradigan vaqtda, uning ish joyini (lavozimini) saqlagan holda, ishdan ozod qilishlari shart. Deputatlik vazifalarini bajarayotgan vaqtda deputatning o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

Viloyat, tuman, shahar hokimliklari tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatini hujjatlar, zarur axborot va ma'lumot materiallari bilan ta'minlaydi, shuningdek, deputatlik faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mutaxassislarining maslahatlarini uyushtiradi.

Deputatga texnik vositalar, aloqa vositalari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Deputat tegishli viloyat, tuman, shahar hududida havo, temir yo'l, avtomobil yo'lovchilar transportida (taksi va shahar yo'lovchilar transporti bundan mustasno) tekin yurish, shuningdek, yo'l pattalarini navbatsiz sotib olish huquqidan foydalanadi.

Deputatning transportda tekin yurish tartibi va shartlari, transport tashkilotlari bilan bu borada hisob-kitob qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida”gi Qonunida deputat va senatorlarning o'z vakolatlarini to'liq hajmda va mustaqil ravishda amalga oshirishlar uchun ma'lum bir darajada kafolatlar belgilangan.

Ayrim huquqshunos olimlar “ deputatlik kafolatlarini amalga oshirishga imkon yaratadigan sharoitlar yig'indisi deputatlik kafolatlari” deb atalishini ta'kidlaganlar. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, har bir deputatga o'z vakolatlarini moneliqsiz hamda samarali amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar kafolatlanadi, uning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmati muhofaza qilinadi.

Deputatlik vakolatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilish maqsadida deputatga ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va senatorning sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilgan shaxslar qonunga muvofiq ma'muriy, jinoiy javobgar bo'ladilar. Deputat va senatorni xaqorat qilgan, unga nisbatan tuhmat qilgan, unga ataylab soxta ma'lumot bergan mansabdor shaxslar tegishli javobgarlikka tortilishi ham qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan.

Ayrim xorijiy mamlakatlarda parlament deputatlarini sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish aybni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Xususan, Finlyandiya qonunchiligiga ko'ra, parlament, deputatini sessiyaga borish yoki qaytish davrida uni deputatligini bilgan holda sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilib, haqorat qilgan shaxslarni javobgarlikka tortishda ushbu holat og'irlashtiruvchi holat deb hisoblanishi lozimligi belgilangan.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan

Qonunchilik palatasi deputati va senator o'zining vakolatlari muddati mobaynida daxlsizlik huquqiga ega.

Deputatning daxlsizligi uning huquqiy holatini belgilanishida muhim ahamiyat kasb etishi shunda ko'rinadiki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati senat a'zosining daxlsizlik huquqidan foydalanishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (88-modda) mustahkamlanganligidan ko'rish mumkin.

Ushbu konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati va senat a'zosining sha'ni va qadr-qimmatini, shaxsini muhofoza etish maqsadida, uning muayyan yuridik javobgarlikka tortilmasligini nazarda tutadi.

Tegishli palataning rozilgisiz deputat, senator jinoiy javobgarlikka tortilishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoga tortilishi mumkin emas.

Deputatni, senatorni majburiy keltirishga, shuningdek, uning uy-joyi, xizmat xonasini, yuki, shaxsiy va xizmat transporti vositalarini, yozishmalarini, u foydalanayotgan aloqa vositalarini, shuningdek, unga tegishli hujjatlarni ko'zdan kechirishga yo'l qo'yilmaydi.

Shuningdek, qayd etilgan qonunda deputat, senator tegishli palatada ovoz berish chog'ida fikr bildirganligi yoki nuqtai nazarini bayon etganligi uchun hamda o'z vakolatlarini amalga oshirishi bilan bog'liq boshqa harakatlari uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas, shu jumladan vakolatlari muddati tugaganidan keyin ham javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Agar shunday xatti-harakatlar munosabati bilan deputat, senator haqorat qilishga, tuhmat qilishga yoki qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan boshqa qonunbuzarliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa, u daxlsizlik huquqidan mahrum qilingan taqdirda javobgarlikka tortiladi.

Deputatlar daxlsizligiga taalluqli bu normalarni boshqa Qonun normalarida ham uchratish mumkin.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham deputatlar daxlsizligi bo'yicha aniq tartib belgilangan.

Respublikamizda deputatni ,senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tegishli palatasi tomonidan o'n kun ichida hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining deputatni jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni qo'llashga rozilik olish to'g'risidagi taqdimnomasi Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqiladi, Qonunchilik palatasining sessiyalari oralig'idagi davrda esa, uning Kengashi tomonidan ko'rib chiqilib, Qonunchilik palatasi Kengashining ushbu masalaga doir qarori keyinchalik Qonunchilik palatasining sessiyasida tasdiqlanadi. Senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala Senat tomonidan uning majlisida, Senatning majlislari oralig'idagi davrda esa, Senatning Kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Qonunchilik palatasining, Senatning yoki palatalar Kengashlarining deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish masalasiga doir qarori darhol O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga yuboriladi.

Deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik olgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ish yuritish tamomlangan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida Qonunchilik palatasiga yoki Senatga ishni tergov qilish, sudda ko'rib chiqish natijalari to'g'risida xabar qilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli palatasining deputatni, senatorni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etishi unga nisbatan jinoyat ishini yuritishni yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni nazarda tutadigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishni istisno etadigan va bunday ishlarni tugatishga sabab bo'ladigan holat hisoblanadi. Tegishli ishni tugatish to'g'risidagi qaror faqat yangi ochilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda bekor qilinishi mumkin.

Deputat, senatorlik faoliyatining tashkiliy kafolatlariga deputat va senatorning mansabdor shaxslar tomonidan darhol qabul qilinishi, deputat va setatorga o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida”gi Qonunining 15-moddasiga asosan deputat va senator o'z vakolatlarini amalga oshirayotganda guvohnomasini ko'rsatib, O'zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga moneliksiz kirish huquqidan, shuningdek ularning rahbarlari hamda boshqa mansabdor shaxslari tomonidan darhol qabul qilinish huquqidan foydalanadilar.

Qonun normalaridan kelib chiqqan holda deputat va senatorlik faoliyatining kafolatlarini ma'lum bir guruhlariga ajratish mumkin. Xususan, bu kafolatlarni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va shaxsiy daxlsizlik kabi guruhlariga ajratish mumkin.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senat a'zosi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlari sifatida harbiy yig'inlardan ozod qilish, transportda tekin yurish, xizmat turar joyi berish, pul to'lanadigan yillik ta'tillarni berilishini va mehnat huquqlari kafolatlarini ko'rsatish mumkin.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida”gi Konunining 16-moddasiga asosan, deputat senatorning Qonunchilik palatasida ishlagan vaqti umumiy ish stajiga va avvalgi ixtisosi bo'yicha ish stajiga qo'shib hisoblanishi ko'zda tutilgan.

2.3. Deputatlar fraksiyasi va guruhlari.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti yillarida erishilgan barcha yutuq va kamchiliklar sarhisob qilinib, ikki palatali parlamentga o'tish qat'iy maqsad sifatida belgilandi. Ikki palatali parlament tizimiga o'tishga xalqning roziligini bilish uchun 2002 yilni 27 yanvarida umumxalq referendumini o'tkazildi. Shundan keyin ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning uchta sessiyasi davomida umumxalq irodasini ifodalagan "Referendum yakunlari va davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitusiyaviy qonunlar qabul qildi. Yangi tipdagi parlamentni shakllantirishning huquqiy asosini vujudga keltirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur konun saylovni tashkil etish va demokratik asosida uyushqoqolik bilan o'tkazish vazifasini Markaziy saylov komissiyasi, siyosiy partiyalar hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklaydi.

2004 yil 15 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov bo'yicha saylov kompaniyasi boshlanishini e'lon qilish to'g'risida"gi qarori qabul kilindi. Unga ko'ra ikki palatali parlamentga saylov 2004 yilning 26 dekabr kuniga belgilandi va yuqori saviyada o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi saylov kampaniyasini nihoyatda faol tashkil etdi. Qonunchilik palatasi sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish maqsadida 120 ta okrug saylov komissiyasi va 8088 uchastka saylov komissiyasi tuzildi.

Ularda aholi keng qatlamlarining vakilligi ta'minlanganligi diqqatga sazovordir. Xususan, uchastka komissiyalari a'zolari orasida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan yuzdan ziyod millatlardan 14 millatning vakillari borligini, ulardan 292 nafari xotin-qizlar vakilasi, 13 nafari fan doktori va 29 nafari fan nomzodi ekanligini e'tirof etish lozim. O'zbekiston Respublikasining xorijiy

mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan 40 ta elchixona hamda vakolatxonasida ham saylov uchastkalari tashkil etilib, ular yordamida chet davlatlarda ishlayotgan 14 mingdan ziyod O'zbekiston fuqarosining saylov huquqi ta'minlandi.

Mamlakatimizda saylovning xalqchil va oqilona tashkil etilishini ta'minlashga oid konferensiyalar, seminar-treninglar va davra suhbatlari o'tkazildi, jumladan, "Demokratik saylovlarni o'tkazishning xalqaro standartlari va O'zbekiston saylov qonunchiligi mavzuida xalqaro davra suhbatlari o'tkazildi". Shuningdek, 1 noyabr kuni Markaziy saylov komissiyasi bilan Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti raisining shaxsiy vakili Martin Axtisaari rahbarligida delegasiya o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi. Muloqatda saylov komissiyalari faoliyati, saylov jarayonlari ommaviy axborot vositalarida oshkora yoritilishi, erkin va demokratik saylovlar o'tkazishda siyosiy partiyalar, saylovchilar tashabbuskor guruhlarining o'rni va ahamiyatiga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi. Saylov kampaniyasi chog'ida saylovchilar bilan deputatlikka nomzodlar o'rtasida o'tkazilgan uchrashuvlarda xalqaro tashkilotlar kuzatuvchilarining ishtirok etishiga katta e'tibor qaratildi va buning uchun tegishli shart sharoitlar yaratildi. Ushbu siyosiy tadbirlarda MDH mamlakatlari va boshqa xalqaro tashkilotlardan 200 nafardan ziyod kuzatuvchi qatnashdi. Saylovda siyosiy partiyalar va saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan 489 nafar deputatlikka nomzod, jumladan, O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan 108, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal demokratik partiyasidan 114, O'zbekiston Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan 84, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasidan 58, O'zbekiston "Adolat" sosial demokratik partiyasidan 71, Saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan 54 nafar deputatlikka nomzod ishtirok etdi.

Ta'kidlash joizki, 5 ta saylov okrugida ikki nafardan nomzod, 23 ta saylov okrugida, 55 ta saylov okrugida to'rt, 32 ta okrugda besh, 5 ta okrugda olti nafardan nomzod bir deputatlik mandati uchun kurash olib borganligi saylovning xolis, demokratik tarzda va muqobillik asosida o'tganligidan dalolatdir.

Birinchi turning ovoz berish natijalariga ko'ra 62 ta saylov okrugida Qonunchilik palatasining deputatlari saylanib, ularni tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 21, O'zbekiston Xalq demokratik partiyasida –18, Fidokorlar milliy demokratik partiyasidan-9, Milliy tiklanish demokratik partiyasidan- 6, "Adolat" sosial demokratik partiyasidan-2, Saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan 6 nafar vakil tashkil etdi. Saylangan 62 nafar deputatning 8 nafari, ya'ni 12.9 foizi xotin-qizlardan iborat bo'ldi. Qolgan 58 ta saylov okrugida deputatlikka nomzodlarning hech qaysisi ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilar yarmidan ko'pining ovozini ololmadi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi 2004 yil 29 dekabrda takroriy ovoz berishni 2005 yil 9 yanvar kuni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi.

Takroriy ovoz berish natijalariga ko'ra, 58 ta saylov okrugida ro'yxatga olingan 6 mln. 800 mingdan ziyod saylovchidan ovoz berishda 5 mln.400 ming nafardan ortig'i ishtirok etdi. Bu tegishli okruglarda ro'yxatga olingan saylovchilar umumiy sonining qariyb 80 foizini tashkil etadi. Takroriy ovoz berish natijasida yana 58 nafar, jami 120 nafar deputat Qonunchilik palatasiga saylandi.

Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning qariyb 18 foizini xotin-qizlar tashkil etdi, bu esa 1999 yilda Oliy Majlisga o'tkazilgan saylovdagidan ikki yarim baravar ko'pdir.

Yangi saylangan deputatlar korpusi tarkibining 18.3 foizi- yuristlar, 21,7 foizi iqtisodchilardir. Deputatlarning 10 foizi sanoat, qurilish, transport va aloqa sohasining vakillari, 7,5 foizi qishloq xo'jaligi vakillari, 12,5 foizi tadbirkorlar 20 foizi ta'lim, fan, madaniyat va sog'liqni saqlash sohasi xodimlaridir. Xalq muxtor vakillarining 16 foizi nodavlat-notijorat tashkilotlarning nomzodlaridan iborat bo'ldi.

2005 yilning 17-20 yanvar kunlari respublikamiz mahalliy Kengashlarda hududlarida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga saylov o'tkazildi. Senat a'zolariga nomzodlarni mahalliy Kengashlarning davlat va jamiyat

faoliyatida katta amaliy tajribaga ega hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li deputatlari orasidan ko'rsatdilar. Shuningdek, Senatning 16 nafar a'zosi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq tayinlandi. Senatorlarning qariyb 15 foizi O'zbekiston agrar sektorining namoyondalari bo'lib, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda faol ishtirok etayotgan fermer xo'jaliklarining taniqli, ilm-fan va madaniyat tizimining vakillaridan iborat. Mamlakatimiz sanoatining vakillari senatorlarning 10 foizini tashkil etadi.

Senat a'zolarining 15 foizi turli sohalarda faoliyat yuritib, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan, o'z mehnati, ilg'or hayotiy qarashlari bilan xalqimiz orasida 7 millat vakillari bo'lib, ularning 89 foizi – o'zbeklar, 11 foizi – qoraqalpoqlar, ruslar, turkmanlar, qozoqlar, ukrainlar, koreyslardir.

Ko'pgina davlatlarda siyosiy partiyalardan tashqari saylovlarda alohida shaxs o'z nomzodini ko'rsatishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, ilgari bunaqa institut O'zbekiston milliy qonunchilik tizimida mavjud emas edi. Lekin dunyo tajribasidan kelib chiqib, Parlamentimiz mazkur yangilikni o'z saylov qonunchiligiga kiritdi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonuni 23-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining saylash huquqiga ega bo'lgan har bir fuqarosi yoki fuqarolar guruhi Oliy Majlis deputatligiga nomzod ko'rsatish uchun tegishli saylov okrugining kamida 300 nafar saylovchisidan iborat saylovchilar tashabbuskor guruhini tuzishi mumkin.

Saylovchilar tashabbuskor guruhi yig'ilishining vakili guruhni ro'yxatga olishni iltimos qilib, tegishli okrug saylov komissiyasiga ariza bilan murojaat etadi.

Huddi shunday huquq fuqarolarga viloyat, shahar va tuman xalq deputatlari Kengashlariga nomzodlar ko'rsatish va saylashda ham berilgan, faqat bu holatda tashabbuskor guruh kamida ellik nafar bo'lishi shart.

«O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonunining 22- moddasi 7 bandiga binoan Deputatlikka nomzod ko'rsatgan saylovchilar tashabbuskor guruhi okrug saylovchilari umumiy sonining kamida 8% miqdorida nomzodni qo'llab-quvatlovchi imzo to'plashi, bunda imzolayogan fuqarolar miqdori har bir mahalla, qishloq yoki ovul bo'yicha mutanosib ravishda taqsimlangan bo'lishi shart.

Ushbu muammoni hal qilish va mustaqil nomzodlar huquqni amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida tashabbuskor guruhlar vakillari, mahalla oqsoqollari Kengashlarining raislari va bir qator nufuzli nohukumat tashkilotlari tashabbusi bilan 1999 yil 23 sentyabr kuni Mustaqil nomzodlarni qo'llab-quvvatlash Markazining ta'sis majlisi bo'lib o'tdi. Unda ushbu Markazning Nizomi qabul qilindi.¹²

Nizomga asosan mazkur nodavlat-notijorat tashkilotining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hamda viloyat, shahar va tumanlar Xalq deputatlari Kengashlariga bo'ladigan saylovlarda fuqarolar tashabbuskor guruhlar tomonidan ko'rsatiladigan mustaqil nomzodlarni o'z saylov huquqlarini amalga oshirishida doimiy qo'llab-quvvatlash, bu bilan haqiqiy kuchli fuqarolik jamiyati qurish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlarini ta'minlash, erkin va adolatli saylovlarni o'tkazish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini uyg'unlashtirishga ko'maklashishdan iboratdir.

Bu maqsadga erishish uchun Markaz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hamda viloyat, shahar va tumanlar Xalq deputatlari Kengashlariga bo'ladigan saylovlarda mustaqil nomzodlarga fuqarolar

¹² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг Регламенти тўғрисидаги қонун. 2003 йил.

tashabbuskor guruhlarini tuzishda, ularning saylov komissiyalari tomonidan ro'yxatga olinishida ko'maklashadi, saylovlarda mustaqil nomzodlarning umumiy ro'yxatini tuzadi, ularga saylov oldi kampaniyasini o'tkazishda, xususan, mustaqil nomzodlarni qo'llab-quvvatlash uchun imzo to'plashlarida, uchrashuvlar va tashviqot ishlarini olib borishlarida yordam beradi, mustaqil nomzodlarning kuzatuvchilarini izlab topish, jalb qilish va tayinlashda yordam berish, huquqiy, ma'naviy ko'maklashadi, mustaqil nomzodlarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ularning saylov huquqlari, ushbu huquqlarni amalga oshirish vositalari va usullari to'g'risida tavsiyalar beradi, mustaqil nomzodlarning saylov huquqlari buzilgan taqdirda ularning huquqlarini ta'minlashga ko'maklashadi va manfaatlarini himoya qiladi, fuqarolar, davlat va jamoat tashkilotlari, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar vakillariga saylovlarda ishtirok etayotgan mustaqil nomzodlar to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

XULOSA

Parlamentarizm prinsiplari asosida faoliyat ko'rsatuvchi davlat institutlari bilan bog'liq masalalar O'zbekistonda huquqiy davlatchilikning qaror topishiga ta'lluqli muammolar silsilasida muhim o'rin tutadi. Chunki, XXI asrning boshlariga kelib oddiy bir haqiqat to'la vakolatga ega bo'lgan parlamentsiz mamlakatda to'la qonli demkoratiya bo'lishi mumkin emasligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi.

Binobarin, fuqarolar demokratiya to'g'risidagi tasavvurlarni avvalo idora etishda, o'zlari ishtirok etishlarining real imkoniyati bilan, qolaversa parlament orqali qonun ijodkorligi jarayoniga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatlari bilan bog'laydi.

Parlament tarixi asrlar bilan o'lchanadi. Zamonlar o'zgarib uning mohiyati yangi g'oyalar tamoyillar bilan shakllanishi va faoliyat ko'rsatish tajribasi bilan boyib boradi.

Qonun chiqaruvchi Oliy organ shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilish shuni ko'rsatadki, o'zbek davlat hokimiyati tizimida tom ma'noda qonun chiqaruvchi korpus, parlament hyech qachon bo'lmagan nazariya va amaliyotda qonun chiqaruvchi tizimning soda kemptik obrazi shakllangan bo'lib, bunda qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalda ado etish Oliy Sovetning faol ishi bilan emas balki partiya apparatining faoliyati bilan uyg'unlashtirilgan edi. Siyosiy tizim o'n yillar mobaynida ijtimoiy hayotni demkoratik qonunlar doirasida tashkil etishga emas balki asosan o'zboshimcha farmoyishlar va ko'rsatmalarni bajarishga moslashtirilgan edi.

Demokratik siyosiy tizimlarning negizi esa erkin saylanadigan parlamentlarni shakllantirishdan, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini hamda hokimiyatning tarmoqlariga bo'linishini kafolatlovchi yangi qonunlarni qabul qilishdan iborat.

Qonun chiqaruvchi organning siyosiy tizimini isloh qilish va O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qaror toptirish sharoitidagi faoliyatini tahlil etish shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda Parlamentarizmga asos solgan institut vujudga keltirildi, amalda mamlakat davlat tuzilishining poydevori bo'lgan qonunchilik bazasi yaratildi, shuningdek xalqaro huquqning umumiy e'tirof etilgan normalariga va O'zbekiston xalqining tabiatiga mos siyosiy tuzilish, mamlakatda fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikning kafiliga aylangan tuzumni izchil barpo etish jarayoni boshlandi.

Demokratik davlat parlamentidagi qonunchilikning klassik jarayoni qonunchilik faoliyatida hokimiyatning Oliy vakillik organlari ustuvor bo'lishi prinsipiga asoalanadi. Bu birinchi navbatda davlat hokimiyatini tashkil etishning intitutsiyaviy funksional shakli sifatida hokimiyat tizimlarining bo'linish qoidasiga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi organlar sifatida ta'riflaydi. Shu bois qonun chiqarish uning bosh vazifasi bo'lib, parlament faoliyatining asosini tashkil qiladi. Bunda qonun chiqarish jarayoni har jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab jarayon ekanligini ta'kidlash muhimdir.

Oliy Majlis ishining avval boshdanoq unda qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilingan islohotlarni huquqiy ta'minlashga o'ziga xos yondashuvlar shakllanadi. Bu boshqa mamlakatlar hokimiyat vakillik organlari xatolarini takrorlamasdan, mamlakatimizdagi o'tish davrining xususiyatlarini O'zbekiston xalqining tabiatini, uning a'naviy va odatlarini hisobga olgan holda o'zimizga xos va mos qonun yaratish mexanizmini ishlab chiqish imkoniyatini berdi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati.

RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T: 2005.
2. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish – ustuvor vazifamiz. T:, 2006
3. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. Toshkent, 2007
4. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., 2008.
5. Karimov.I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi « O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyati barpo yetishda mustahkam poydevordir». 2009 y. 7-mart.
6. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot xaqiqatini aks ettirish. –T.: “O'zbekiston”, 2009. – 24 b.
7. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot xaqiqatini aks ettirish. –T.: “O'zbekiston”, 2009. – 24 b.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: O'zbekiston, 2009.-56 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyati barpo etishda mustahkam poydevordir. // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, № 237 (4900). 2009 yil 6 dekabr.
10. Karimov I.A. Mamlaktimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. // O'zbekiston Resublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, № 19 (4934). 2010 yil 28 yanvar.

11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, № 21 (4936). 2010 yil 30 yanvar

MAXSUS VA NORMATIV-HUQUQIY ADABIYOTLAR

12. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent, 2009 yil.
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'grisida (O'zbekiston Respublikasi 12.12.2002 y. 432-II-son Konstitusiyaviy Konuni)
14. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 522-II-son Konuni)
15. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining “O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining qo'mitalari to'g'risida”gi 2005 yil 27 yanvardagi 14-I-sonli qarori
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 523-II-son Konuni)
17. «Mahalliy hokimiyat idoralarini kayta tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1992 yil 4 yanvar. O'zbekistonning yangi qonunlari, 5-son.–T.: Adolat, 1992.
18. «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni 1993 yil 2 sentyabr. O'zbekistonning yangi qonunlari, 9-son.–T.: Adolat, 1994.

19. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risidagi qonun. 2003 yil
20. «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 1999 yil 14 aprel. O'zbekistonning yangi qonunlari, 21-son.–T.: Adolat, 1999.
21. Odilqoriyev H.T. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi va hokimiyatlar bo'linishi prinsipi.T.: 1993.
22. Tojixonov U va boshqalar, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy huquqi T. 2001.
23. Husanov O.T.: O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonuniga sharxlar.T.: Adolat, 1995.
24. Husanov O.T.: Mustaqillik va mahalliy hokimiyat.T.: Sharq, 1997.
25. Chirkin.V.Ye. Konstitutionnoye pravo zarubejnyx stran.M.: Yurist. 2001.
26. Chudakov.M.F. Konstitutionnoye (gosudarstvennoye) pravo zarubejnyx stran.Minsk. Novoye znaniye. 2001.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-5
--------------------	------------

ASOSIY QISM

I – BOB. Qonunchilik palatasining shakllantirishi va tuzilishi.

1.4. Qonunchilik palatasining mohiyati.....	6-14
1.5. Deputatlar saylovi va palata deputati.....	15-24
1.6. Palataning tuzilishi va faoliyat tartibi.....	25-31

II– BOB. Qonunchilik palatasi deputatlarining Konstitusion-huquqiy maqomi.

2.1. Deputatlarning Konstitusiyaviy maqomi.....	32-38
2.2. Deputatlar statusi to'g'risidagi qonunchilik.....	39-49
2.3. Deputatlar fraksiyasi va guruhlar.....	50-55

XULOSA.....	56-57
--------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	58-60
--	--------------